

**SIYOSIY QARORLAR QABUL QILISH JARAYONI: NAZARIY
YONDASHUVLAR, ISHTIROKCHILAR VA AMALIY MEXANIZMLAR TAHLILI**

O‘rolov Shavkat O‘razali o‘g‘li

Toshkent davlat Transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

shavkaturalov633@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu ishda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining nazariy asoslari va amaliy ko‘rinishlari o‘rganilib, O‘zbekiston va AQSh tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi. Qaror qabul qilishda ishtirok etuvchi institutlar, ularning o‘zaro ta’siri, ochiqlik darajasi va jamoatchilik ishtirokining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot tizimli tahlil, qiyosiy metod va kontent tahliliga tayangan holda, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni ko‘rsatadi. O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi islohotlari negizida qarorlar sifatini yaxshilash, raqamli boshqaruv va ochiqlikni kuchaytirish yo‘nalishidagi real o‘zgarishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. siyosiy qaror, davlat boshqaruvi, qiyosiy tahlil, O‘zbekiston tajribasi, AQSh modeli, jamoatchilik ishtiroki, siyosiy institutlar, boshqaruv samaradorligi.

Annotation. This paper examines the theoretical foundations and practical mechanisms of political decision-making, with a comparative analysis of the processes in Uzbekistan and the United States. It highlights the role of key political institutions, the degree of transparency, and the importance of public participation in shaping effective decisions. Using system analysis, comparative methods, and content analysis, the study identifies the main factors influencing the efficiency of state governance. Special attention is given to recent reforms in Uzbekistan aimed at improving decision quality, enhancing digital governance, and increasing openness and accountability in the public sector.

Keywords. political decision-making, public administration, comparative analysis, Uzbekistan, United States, political institutions, public participation, governance efficiency.

Kirish. Siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni davlat boshqaruvida eng muhim va murakkab mexanizmlardan biri bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi, siyosiy institutlar samaradorligi hamda jamoatchilik ehtiyojlarining qondirilishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Globallashuv jarayoni, axborot texnologiyalarining tezkor rivoji, xalqaro tahdidlarning kuchayishi va fuqarolik jamiyatining faollashuvi siyosiy qarorlar sifatiga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Shu sababli qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslarini, uning bosqichlari va unga ta’sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish siyosiy menejmentning asosiy

vazifalaridan biridir. Siyosiy qarorlar ko'plab aktorlar – davlat institutlari, manfaat guruhlari, jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari va xalqaro omillar ishtirokida shakllanadi. Ularning o'zaro ta'siri jarayonning murakkab, ko'p bosqichli va dinamik xarakterga ega bo'lishiga olib keladi. Mazkur jarayonni nazariy jihatdan tushuntirishda ratsional tanlov, byurokratik siyosat modeli, incrementalism va cheklangan ratsionallik kabi yondashuvlar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston uchun bu mavzu ayniqsa dolzarbdir, chunki so'nggi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar qaror qabul qilish tizimini yangicha tamoyillar asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida ochiqlik, tashabbuslarni baholash, jamoatchilik fikrini hisobga olish kabi tamoyillarning kuchayishi jarayonning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi.

Metodologiya. Ushbu maqolada siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining nazariy asoslarini va uning amaliy ko'rinishlarini O'zbekiston hamda AQSh misolida o'rganishga yo'naltirilgan. Izlanishda bir nechta ilmiy metodlar uyg'un tarzda qo'llanib, jarayonning institutsional, siyosiy va boshqaruvga oid xususiyatlari har tomonlama tahlil qilindi. Birinchidan, sistemali tahlil metodi orqali siyosiy qaror qabul qilishning umumiy tuzilmasi, asosiy aktorlar, ularning o'zaro hamkorligi va qarorlarning shakllanishi bosqichlari o'rganildi. Bu metod qaror qabul qilish jarayonini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Ikkinchidan, tadqiqotda qiyosiy (comparative) tahlil asosiy o'rin tutdi. O'zbekiston va AQShning siyosiy institutlari, hukumatning qaror ishlab chiqish tartibi, manfaatlar muvozanati, jamoatchilik ishtiroki va parlament nazorati kabi elementlar solishtirildi. Ushbu qiyoslash ikki davlatning siyosiy tizimi farqlari va o'xshashliklarini aniqlash imkonini berdi. Uchinchidan, kontent tahlil usuli qo'llanib, O'zbekiston va AQShda qabul qilingan muhim siyosiy qarorlarning matnlari, hukumat bayonotlari, qonunchilik hujjatlari hamda strategik dasturlar mazmunan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida qarorlar qanday asoslantirilgani, qaysi ustuvorliklarga tayanilgani va ularning amaliy natijalari o'rganildi. Shuningdek, tadqiqotda institutsional yondashuvdan foydalanilib, ikki davlatdagi qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi siyosiy institutlarning (parlament, ijro hokimiyati, sud tizimi, manfaat guruhlari, ommaviy axborot vositalari) roli alohida o'rganildi. Bu esa qarorlar qanday siyosiy muhitda shakllanishini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqotning manba bazasini O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari, AQSh Kongressi hujjatlari, Oq uy farmonlari, xalqaro tashkilotlar (OECD, UNDP) hisobotlari hamda siyosiy menejmentga oid ilmiy adabiyotlar tashkil qildi. Mazkur metodlar uyg'unligi O'zbekiston va AQSh tajribasini obyektiv solishtirish, siyosiy qaror qabul qilish jarayonining afzalliklari, muammolari va rivojlanish imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar. Qaror, bu davlat organi yoki mansabdor shaxsning o‘z vakolati doirasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida qabul qilingan va biror oqibat keltirib chiqaradigan hujjat. Qaror, odatda, ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinib, u ana shu organning o‘z vazifalarini amalga oshirish vositalari va yo‘llarini nazarda tutgan boshqaruv vaziyatini tahlil etish hamda baholashga oid erki ifodasi hisoblanadi.⁵² Qaror ijro etuvchi hokimiyat tegishli organi kompetensiyasi doirasida qabul qilinadigan me‘yoriy yoki individual (aniq huquqiy hodisa yoki shaxsning vakolatli ravishda rasmiylashtirilishi natijasida shaxs yoki vaziyatga taalluqli) huquqiy ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirish jarayonida uzoq muddatli va muayyan soha bilan bog‘liq faoliyatni (ishlarni) istiqboli loyihalash yuzasidan qarorlar, masalan, maqsadli dasturiy qarorlar, joriy asosiy faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha tezkor, protsessual, uslubiy, tavsiyaviy, individual va ommaviy qarorlar qabul qilinishi mumkin.⁵³ Qarorda uni amalga oshirish muddatlari va ijrochilari aniq belgilab qo‘yilgan bo‘ladi.⁵⁴ Qabul qilinishidan oldin loyihasi tayyorlanib, muhokama qilinishi maqsadga muvofiqdir. Yuzaga kelgan vaziyatni (muammoli, holatni) boshqarish maqsadida qabul qilinadigan qarorlar variantidan maqbul variantni tanlash lozim bo‘ladi. Bu jarayonni samarali kechishi uchun qarorlarning klassifikatsiyasini amalga oshirish lozim, hisoblanadi. O‘zbekiston va AQShda qaror qabul qilish jarayonlari va boshqaruv tizimlari shakllanishi va samaradorligi jihatidan sezilarli farqlarga ega.

	O‘zbekiston	AQSh
Boshqaruv qaror qabul qilish tuzilmasi	Markazlashgan, ijro hokimiyati markazida; mahalliy hokimliklar vakolatlari kengaytirilmoqda, lekin strategik qarorlar hamon markazda.	Mult institutli, “checks and balances”; qonunchi, ijroiya va sud hokimiyatlari vakolatlari aniq taqsimlangan.
Islohot va demokratik institutlar roli	2017 dan beri davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, fuqarolik xizmati tizimini tartibga solish,	Demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati, lobbi guruhlar, ommaviy axborot vositalari

⁵² Understanding the drivers of political decision-making in 21st-century government. This post is written by Laura Smillie. URL: <https://apolitical.co/solution-articles/en/understanding-the-drivers-of-political-decision-making-in-21st-century-government> (murojaat sanasi 07.12.2025)

⁵³ R. Jumayev, Sh. Yovqochev. *Siyosiy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma*. – Toshkent: TDSHI, 2018. – 232 b.

⁵⁴ Scientific Data and Political Decisions in the Field of Addictive Behaviors Bernard Basset. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/edited-volume/abs/pii/B9781785482724500019> (murojaat sanasi 07.12.2025)

	mahalliy boshqaruv, jamoatchilik bilan aloqalarni kengaytirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.	keng ishtirok etadi; qarorlar muvofiqlashtirilgan, qayta ko‘rib chiqiladigan.
Qaror qabul qilish jarayonining ochiqligi va fuqarolik ishtiroki	Rasmiy jihatdan – islohotlar bilan ochiqlik, elektron davlat xizmatlari (e-government), mahalliy darajadagi vakolatlarni oshirish orqali jamoatchilik bilan aloqalar kuchaymoqda.	Fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, medianing faol roli, lobbi va manfaatdor guruhlar orqali siyosiy qarorlarga ta’sir — demokratik ishtirok keng.
Qaror sifatini oshirish, muvofiqlik va jamoatchilik manfaatlari hisobga olinishi	Islohotlar va fuqarolar hamda mahalliy hamjamiyatlar ishtirokida davlat xizmatlari va boshqaruv samaradorligi oshirilmoqda — lekin jamoatchilik ishtiroki va mustaqil nazorat institutlari hozircha nisbatan zaif.	Qarorlar kompleks ko‘rib chiqiladi: turli manfaatdor tomonlar, lobbi guruhlari, jamoatchilik — bu qarorlarning muvofiqligi va barqarorligini oshiradi.

Shu bilan birga, har ikki davlat qaror qabul qilish tizimlarida o‘ziga xos ustunliklar va muhim farqlar mavjudligi kuzatiladi.

Muhokama. O‘zbekiston va AQShning siyosiy qaror qabul qilish jarayonini qiyosiy tahlil qilish ushbu jarayonning institutlararo muvozanat, jamoatchilik ishtiroki, ochiqlik darajasi hamda qarorlarni ishlab chiqish mexanizmlarida sezilarli farqlarga ega ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, vakolatlarni mahalliy darajaga berish, jamoatchilik fikrini qarorlar shakllanishiga kengroq jalb etish bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda markazlashuvning saqlanib qolishi, mustaqil ekspertiza instituti va fuqarolik nazoratining yetarli darajada shakllanmaganligi qarorlarning sifatini to‘liq optimallashtirishga to‘sqinlik qilmoqda. AQSh modeli esa “checks and balances” tamoyiliga asoslanib, siyosiy institutlarning mustaqilligiga, manfaatlar raqobatiga va jamoatchilik nazoratiga tayanadi. Kongress, ijroiya hokimiyati, sud tizimi, manfaat guruhlari va media o‘rtasidagi muvozanat qarorlarni ko‘p bosqichli, ba‘zan sekinroq, lekin samaradorligi yuqori bo‘lgan formatda shakllantiradi. Bu tizim qarorlarning barqarorligi, manfaatlar muvofiqligi va siyosiy javobgarlikni kuchaytiradi. O‘zbekiston uchun AQSh tajribasi to‘liq ko‘chirib olinishi mumkin bo‘lmasa-da, ammo undagi ochiqlik, ekspertiza madaniyati, manfaatdor guruhlarining konstruktiv ishtiroki va normativ-huquqiy nazoratning mustaqilligi kabi

elementlar amaliyotda qo‘llash uchun muhim yo‘nalishlar bo‘la oladi.⁵⁵ Mamlakatda olib borilayotgan yangi islohotlar, xususan elektron hukumat tizimi, normativ-huquqiy hujjatlar jamoatchilik muhokamasi, davlat xizmati tizimidagi o‘zgarishlar qarorlar sifatini oshirish uchun ijobiy zamin yaratmoqda. Shunday bo‘lsa-da, jarayonning institutsional mustahkamligi, manfaatlar muvozanati va professional ekspertiza tizimini rivojlantirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. O‘zbekiston va AQShning siyosiy qaror qabul qilish tizimlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikkala modelning o‘ziga xos ustunliklari mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston oxirgi yillarda amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlar orqali boshqaruvning sifatini sezilarli darajada yaxshilab bormoqda. Yurtimizda davlat apparatini modernizatsiya qilish, vakolatlarni hududlarga berish, jamoatchilik fikrini qarorlar shakllanishiga jalb etish, raqamli boshqaruvni joriy etish va ochiqlik siyosatini kengaytirish kabi o‘zgarishlar siyosiy qaror qabul qilish jarayonining yanada samarali, tezkor va xalq manfaatiga mos bo‘lishini ta’minlamoqda. AQSh tajribasi ko‘p bosqichli ekspertiza, institutsional mustaqillik va jamoatchilik nazoratining yuqori darajasi bilan ajralib turadi, bu esa qarorlarning barqarorligi va manfaatlar muvofiqligini ta’minlaydi. O‘zbekiston ushbu tajribani to‘liq takrorlamagan holda, ammo eng muhim elementlarini milliy sharoitga moslashtirib, o‘zining modernizatsiya yo‘lini shakllantirmoqda. Bugungi kundagi islohotlar davlat boshqaruvida ochiqlik, mas’uliyat va professional yondashuvni kuchaytirib, milliy strategik maqsadlarga erishishda muhim poydevor yaratmoqda. Umuman olganda, O‘zbekiston siyosiy qaror qabul qilish tizimi izchil o‘zgarishlar davrida bo‘lib, ushbu jarayonni ilmiy asoslash, ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va jamoatchilik nazorat ini kuchaytirish orqali yanada samarali modelga aylanish yo‘lida davom etmoqda. Mazkur islohotlar amaliy natija berishda davom etsa, yurtimiz yaqin istiqbolda xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi, shaffof va zamonaviy siyosiy boshqaruv tizimini to‘liq shakllantirishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Understanding the drivers of political decision-making in 21st-century government. This post is written by Laura Smillie. URL: <https://apolitical.co/solution-articles/en/understanding-the-drivers-of-political-decision-making-in-21st-century-government> (murojaat sanasi 07.12.2025)

⁵⁵ Karimova V.A., Zaynutdinova M.B., Nechirova E.Sh., Sadiqova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari. – Toshkent: “Shark”, 2014. – 126 b.

2. R. Jumayev, Sh. Yovqochev. *Siyosiy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: TDSHI, 2018. – 232 b.
3. Scientific Data and Political Decisions in the Field of Addictive Behaviors Bernard Basset. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/chapter/edited-volume/abs/pii/B9781785482724500019> (murojaat sanasi 07.12.2025)
4. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B., Nechirova E.Sh., Sadiqova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari. – Toshkent: “Shark”, 2014. – 126 b.